*Sifatli ta'lim-yorqin kelajak*
*ISSN: 3060-4761*

*TerDPI ILMIY XABARNOMASI*
*SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI*
*НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ*

*www.xabarnoma.terdpi.uz*

**UDK: 9/908:433**
**ORCID: 0009-0008-7605-276X**

# XX ASRNING 60-80-YILLARIDA SURXON VOHASI AHOLISINING O‘ZBEKISTON SSR QISHLOQ XO‘JALIGI IQTISODIYOTIGA QO‘SHGAN HISSASI

**Amirqulov Muhiddin G‘ulomovich**
**Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti**
**“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi**
**E-mail:amirkulovmukhiddin@gmail.ru.**

**Annontatsiya:** Ushbu maqolada 1960-1980-yillarda Surxon vohasi aholisi tomonidan qishloq xo‘jaligi sohasida qilgan mehnatlari natijasida O‘zbekiston SSR iqtisodiyotiga qo‘shgan hissasi, vohada yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o‘sib borish ko‘rsatkichlari atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi Surxon vohasi aholisining qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirib berish orqali mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shgan hissasi, ularning qishloq xo‘jaligidagi asosiy kundalik mashg‘ulotlari hamda davlatga yetishtirib berilgan turli xildagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining yillar kesimida o‘sish ko‘rsatkichlarini tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, ushbu tadqiqot ishi doirasida statistik tahlil metodi orqali 1960-1980-yillar oralig‘ida Surxon vohasi aholisi tomonidan yetishtirib berilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, o‘zlashtirilgan yerlarning kengayishi natijasida yangi yerlarga ekilgan ekin turlari, o‘tgan yillarga nisbatan olinib solishtirilgan. Tadqiqot ishidan bir qator natijalar olindi. Jumladan, 1960-yillarning boshlarida asosan voha qishloq xo‘jaligi paxtaga ixtisoslashtirilgan bo‘lsa, keying yillarda ham paxta yetishtirish ko‘payib bordi va shu bilan birga boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish ham ko‘payganligi aniqlandi. Xulosa qilib aytganda, voha aholisi tadqiq qilingan davrlarda asosan qishloq xo‘jaligida band bo‘ldi, jumladan sovxoz va kolxozlarda suvchi, paxta terim mavsumlarida terimchi kabi vazifalarni bajardi. Buning natijasida vohaning mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shgan hissasini yuqori baholash mumkin.

**Kalit so‘zlar:** Surxon vohasi, qishloq xo‘jaligi, O‘zbekiston SSR, iqtisodiyot, aholi, 1960-1980-yillar.

# SURKHAN OASIS IN THE 60S AND 80S OF THE 20TH CENTURY CONTRIBUTION OF THE POPULATION TO THE AGRICULTURAL ECONOMY OF THE UZBEK SSR

**Annotation:** In this article, the contribution of the population of the Surkhan Oasis to the economy of the Uzbek SSR as a result of their labor in the field of agriculture in the 1960s-1980s, and the growth indicators of agricultural products grown in the oasis are analyzed in detail. The purpose of the study is to analyze the contribution of the population of the Surkhan oasis to the country's economy through the production of agricultural products, their main daily activities in agriculture, as well as the growth indicators of various types of agricultural products supplied to the state over the years. Also, within the framework of this research work, using the method of statistical analysis, the agricultural products grown by the population of the Surkhan oasis in the period from 1960 to 1980, the types of crops planted on new lands as a result of the expansion of developed lands,

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

were taken and compared with previous years. A number of results were obtained from the research work. In particular, if in the early 1960s the agriculture of the oasis was mainly specialized in cotton, then in subsequent years cotton production increased, and at the same time, the production of other agricultural products also increased. In conclusion, the population of the oasis was mainly engaged in agriculture during the studied periods, including the duties of irrigators in state and collective farms, and pickers during the cotton harvest season. As a result, the contribution of the oasis to the country's economy can be highly appreciated.

**Keywords:** Surkhan Oasis, agriculture, Uzbek SSR, economy, population, 1960-1980.

# СУРХАНСКИЙ ОАЗИС В 60-80-Е ГОДЫ XX ВЕКА ВКЛАД НАСЕЛЕНИЯ В ЭКОНОМИКУ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА УЗБЕКСКОЙ ССР

**Аннотация:** В данной статье подробно анализируется вклад населения Сурханского оазиса в экономику Узбекской ССР в результате их труда в области сельского хозяйства в 1960-1980-е годы, показатели роста сельскохозяйственной продукции, выращенной в оазисе. Целью исследования является анализ вклада населения Сурханского оазиса в экономику страны посредством выращивания сельскохозяйственной продукции, их основных повседневных занятий в сельском хозяйстве, а также показателей роста различных видов сельскохозяйственной продукции, выращенной государству, в разрезе лет. Также в рамках данной исследовательской работы методом статистического анализа произведенная населением Сурханского оазиса в период с 1960 по 1980 годы сельскохозяйственная продукция, виды сельскохозяйственных культур, посаженных на новых землях в результате расширения освоенных земель, были сравнены с предыдущими годами. Из исследовательской работы был получен ряд результатов. В частности, если в начале 1960-х годов сельское хозяйство оазиса специализировалось в основном на хлопке, то в последующие годы также увеличилось производство хлопка, и вместе с этим увеличилось производство другой сельскохозяйственной продукции. В заключение можно сказать, что население оазиса в исследуемые периоды в основном было занято в сельском хозяйстве, в том числе выполняло такие обязанности, как поливальщик в совхозах и колхозах, сборщик хлопка в период сбора урожая. В результате можно высоко оценить вклад оазиса в экономику страны.

**Ключевые слова:** Сурханский оазис, сельское хозяйство, Узбекская ССР, экономика, население, 1960-1980.

**KIRISH**. Viloyatda ikkinchi jahon urushidan keyingi dastlabki yillarda viloyatda xalq xo‘jaligini izga solish, qishloq xo‘jaligini har tomonlama taraqqiy ettirish, mavjud muammolarni tezroq tugatish, moddiy-texnikaviy ahvolni yaxshilash kabi vazifalar turgan edi. Ishchi kuchining yetishmasligi, malakali mutaxassislar ko‘pchiligining urushda halok bo‘lganligi, davlat tomonidan yetarli darajada yordamning yo‘qligi natijasida rivojlantirish imkoniyati ancha chegaralangan edi. Achinarlisi shundaki, og‘ir ahvolga qaramay, Markazdan berilayotgan ketma-ket ko‘rsatmalar, imkoniyatni hisobga olmay rejalashtirish, qo‘shimcha mahsulotlarni yetkazib berish to‘g‘risidagi buyruqlar xalqning turmush tarzini qiynlashtirib qo‘ydi. Shunday sharoitda viloyat mehnatkashlari o‘z zimmasidagi reja va topshiriqlarni bajarishga ishonch bilan kirishdilar.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Mazkur maqolani yozishda S.Tursunov, E.Qobilov va boshqalarning “Surxondaryo tarix

ko‘zgusida”, S.Tursunov va Q.Eshboyevlarning “Sho‘rchi tarixidan lavhalar”, A.Ro‘ziyevning “Surxondaryo viloyati”, S.Tursunov, Q.Eshboyev va A.To‘xtayevlarning “Qumqo‘rg‘on tarixidan lavhalar” nomli asarlaridan hamda 1960-1980-yillar oralig‘ida nashrdan chiqqan “Lelin bayrog‘i” va “Yangiobod” gazetalarining materiallaridan foydalanildi. Shuningdek, Surxondaryo viloyat davlat arxivida saqlanyotgan ushbu davrlarga oid hujjatlardan ham ma’lumotlar keltirildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.** Uzun tumanidagi mavjud 32 ta xo‘jalikdan 28 tasi rejani oshig‘i bilan bajarib, shundan 11 tasi har gektardan 15-20 sentnerdan hosil oldi. O‘rinboy Yo‘ldoshev yetakchiligidagi “Yangi kuch” jamoa xo‘jaligi a’zolari 21 sentnerdan, shu jumladan, ushbu jamoa xo‘jaligidagi Yoqubjon Hojimatov boshliq zveno a’zolari har gektar yerdan 35 sentnerdan hosil oldi [1, Б. 235]. 1964-yilda Sho‘rchi tumani 105 ming tonna paxta yetishtirib, respublikada birinchi o‘rinni egalladi. 1960-1970-yillarda tumanda irrigatsiya-meloratsiya ishlariga katta e’tibor qaratilib, “Hazarbog‘” kanaliga beton yotqizildi. Xo‘jaipok, Sangardak va Omborsoy orqali beton quvurlar o‘rnatilib, Denov kanali qazilib, qo‘shimcha suv keltirildi. Hotamtoy, Mingjar, Kakan, Ketmon dashti, “Ozod” “Ijtimoiyat” va “Tolli” jamoa xo‘jaliklaridagi qir-adirlar o‘zlashtirildi.

1967-yilda Sho‘rchi tumani 70 ming tonna paxta, 7 ming 238 tonna don mahsulotlari, 2615 tonna sabzavot, 1 ming 87 tonna kartoshka, 3 ming 378 tonna poliz mahsulotlari, 1 ming 437 tonna meva, 3 ming 600 tonna uzum, 1 ming 836 tonna go‘sht, 3 ming 413 tonna sut 1 million 701 ming dona tuxum, 63 ming 600 kg pilla 27 ming 710 dona qorako‘l teri va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini topshiradi [2].

1960-1970-yillarda Sho‘rchi tumani 371 ming yoki rejadagidan 38 ming tonna ko‘p paxta topshirdi. 1971-1975-yillarda 381 ming 600 tonna paxta, 10 ming 100 tonna go‘sht mahsulotlarini davlatga topshirdi [3, Б. 137]. Ushbu yillarda vohadagi tumanlarning iqtisodiy ko‘rsatkichlari yaxshilanib, davlatga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini topshirish hamda ularni yetishtirish borasida bir qancha yutuqlarga erishganligini ko‘rishimiz mumkin.

1966-yili Surxondaryo viloyati paxtakorlari paxta hosili yetishtirish bo‘yicha rekordini yangilab, 316 ming tonna paxta yetishtirishdi. Viloyat paxta yetishtirish bo‘yicha O‘zbekistonda ikkinchi o‘ringa chiqdi. Voha paxtakorlari tomonidan har gektar yerdan 28,2 sentnerdan paxta yetishtirildi.

1967-yilda viloyatda paxta tolasi yetishtirish urushdan oldingi davrdan 4,5 barobar, go‘sht 3,3 barobar, mol yog‘i 11 barobar oshadi. Viloyat sanoatining yalpi mahsuloti 4 barobar oshdi [4]. 1967-yilda Surxondaryo viloyati kolxoz va sovxozlari har biri 15 ming ot kuchiga ega bo‘lgan 10 ming traktor, 300 ta g‘alla kombayni hamda 200 dan ko‘proq don seyalkasi va boshqa qishloq xo‘jaligi texnikalariga ega bo‘ldi. Ushbu texnikalar yordamida viloyat mehnatkashlari davlat tomonidan belgilab berilgan rejalarni ortig‘i bilan bajarishga erishdi. 1965-yilda Sherobod tumani hududida atiga 4 ta xo‘jalik – Lelin, “Partiya XXII syezdi”, Kirov nomli kolxozlar va “Kommunizm” nomli sovxoz bor edi. Kolxozlar faqat Sherobod daryosi suvidan, sovxoz esa tog‘ etaklaridagi buloq suvlaridan foydalanar edi. Bu vaqtda xo‘jaliklarda dehqonchilik ekinlarini, shu jumladan, paxtachilikni rivojlantirish to‘g‘risida gap so‘z ham qilib bo‘lmagan. Chunki ekilgan ekinlarning anchagina qismi yoz oylarida suv nihoyatda kamayib qolganligi natijasida qurib ketgan. Tumandagi xo‘jaliklarda yetishtiriladigan paxta 9600-9700 tonnadan oshmagan. O‘sha yili ilg‘or xo‘jaliklardan hisoblangan “Partiya XXII syezdi” kolxozi davlatga 2714 tonna, “Kirov” nomli kolxoz esa 2450 tonna paxta topshirgan. “Lelin” nomli kolxoz boshqa xo‘jaliklarga nisbatan ko‘proq – 3230 tonnaga yaqin paxta yetishtirgan.

"Kommunizm" sovxozi esa chorvachilik xo'jaligi hisoblanib, ozroq paxtachilik bilan ham shug'ullangan va davlatga 1220-1230 tonna atrofida paxta topshirgan.

"Q.Rahimov" nomli sovxoz Sherobod dashtlarini o'zlashtirish natijasida tashkil etilgan yangi xo'jaliklarning biri bo'lib, u tashkil etilgandan boshlab 4 yil ichida progressiv texnologiyasi, kompleks mexanizatsiyani hamda ishlab chiqarishni keng joriy etib, paxta va boshqa dehqonchilik mahsulotlarini ko'paytirishga erishgan. Sovxoz mehnatkashlari tomonidan 1973-yilda 5500 gektar yer maydonining har gektaridan 23,2 sentnerdan hosil yetishtirib, davlatga 12746 tonna paxta topshirgan.

Yetishtirilgan hosilning 8500 tonnasi ya'ni 68 foizi mashinalarda terib olingan. Va bu orqali davlatga 1 million 82 ming so'm sof foyda keltirgan. Shuningdek, poliz mahsulotlari ishlab chiqarish rejasi 100 va savzavot yetkazib berish rejasi 110 foizga bajariladi. 1974-yilda 3680 gektar yer maydoning har gektaridan 35 sentnerdan hosil yetishtirib, davlatga 12000 tonna paxta yetkazib berdi [5]. Barcha xo'jaliklarda qishloq xo'jaligi texnikalari yetishmaganligi sababli asosiy ishlar qo'l mehnati orqali bajarilgan [6]. 1960-yillarning o'rtalariga kelib viloyat qishloq xo'jaligida ma'lum ijobiy siljishlar bo'ldi, iqtisodiy yutuqlar qo'lga kiritib borildi. 1965-yili Sherobod tuman bo'yicha 61 ming gektar yerga ekin ekilib, shundan 45 ming gektari shartli sug'oriladigan va lalmi yerlarda yetishtirildi.

Donni yig'ishtirib olishda 210 ta g'alla kombayni ishlab, ularning har biri bilan o'rta hisobda kuniga 8-10 gektar maydondagi hosil o'rib-yig'ib oldi. Bunda Sariosiyo tumanidagi "Kommunizm" jamoa xo'jaligining Ochildi Jabborov, Sherabod tumanidagi "Partiya XXII s'ezdi" jamoa xo'jaligining Xudoymurod Rasulov kabi dehqonlarining xizmati katta bo'ldi. Biroq qishloq xo'jaligida qayta qurish jarayonlarining kam samara berganligiga amalga oshirilgan tadbirlar bilan qishloq xo'jalik mehnatkashlarining o'z mehnatlari natijalaridan iqtisodiy mafaatdorligi o'rtasida chuqur bog'liqlik yo'qligi ma'lum darajada sabab bo'ldi. 1989-yilda viloyatda 127 ming kishi mehnatga qobiliyatli bo'lgan holda ish yo'qligidan ishlamagan. Sobiq SSSR davrida viloyat sanoati asosan bir tomonlama rivojlanadi. Viloyatda sanoat korxonalarini qurish nihoyatda sekin amalga oshirildi.

Qurilgan sanoat korxonalarining ko'pchilligi asosan xom ashyoga ya'ni dastlabki ishlov berishga ixtisoslashgan edi. Bundan tashqari, mustabid tuzumning noto'g'ri iqtisodiy siyosati oqibatida butun respublikada paxta yakkahokimligining o'rnatilishi viloyat xalq xo'jaligini ham chetlab o'tmagan. Natijada esa, Surxondaryo viloyati ham agrar tizimga ixtisoslashtirildi. Aholini qo'shimcha ishchi o'rinlari bilan ta'minlash, sanoat korxonalari barpo etish borasida bildirilgan taklif va mulohazalar e'tiborsiz qoldirildi. Shunga qaramasdan, vohaning fidoyi insonlari viloyatda sanoat korxonalari sonini ko'paytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish borasida tinimsiz harakat qilib viloyat sanoati yuksalishiga o'zlarining munosib ulushlarini qo'shdilar. Urushdan keyingi dastlabki yillarda viloyatda qishloq xo'jaligini har tomonlama taraqqiy ettirish, mavjud muammolarni tezroq tugatish, moddiy-texnikaviy ahvolni yaxshilash kabi vazifalar turgan edi. Ishchi kuchining yetishmasligi, malakali mutaxassislar ko'pchiligining urushda halok bo'lganligi, davlat tomonidan yetarli darajada yordamning yo'qligi natijasida jamoa xo'jaliklarini iqtisodiy jihatdan rivojlantirish imkoniyati ancha chegaralangandi [7, Б. 112]. Avval bo'lganidek, agrar ishlab chiqarishni tashkil etishdagi kamchiliklar ko'pincha qishloq mehnatkashlarining mehnati bilan yopilib ketardi. Mehnatni moddiy rag'batlantirish tizimi to'liqligicha oqsayotgan edi. U, bir tomondan, ma'muriy cheklovlar sababli tobora ortib borayotgan buyruqbozlik bilan almashtirish vositasida to'xtatib turilsa,

ikkinchi tomondan, moddiy rag‘batlantirishni zarur iqtisodiy shart-sharoitlar bilan qo‘llab-quvvatlashning yo‘qligi to‘xtatib turardi. Bu davrda bozor molar bilan kam ta’minlangan edi, natijada mahsulot ishlab chiqargan dehqon ko‘pincha o‘z puliga sotib oladigan narsalarni topolmasdi. Bu esa dala va fermerlar mehnatkashlarining yuqori unumli mehnatga intilishini kamaytirdi.

1949-1974-yillarda viloyatda ekin maydonlari 64 ming gektarga kengaydi, paxta maydoni 53 ming gektardan 106 ming gektarga yetdi, paxta yetishtirish 117 ming tonnadan 236 ming tonnaga o‘sdi. 1965-yilda viloyat 305 ming tonnadan ko‘proq paxta yetkazib berdi. 1949-1964-yillar mobaynida suv xo‘jaligi va qishloq qurilishi ishlariga 163,4 million so‘m mablag‘ sarflandi. 1966-yilda viloyatda paxta hosildorligi 1943-yilga nisbatan 4 barobarga oshdi va 28,2 sentnerni tashkil etdi.

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, ushbu yillarda viloyatda unumdorlik oshgan. Bunga yorqin misol sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin, jumladan, Jarqo‘rg‘on tumani davlatga 306 ming tonna paxta, 4,0 ming tonna makkajo‘xori, 8,8 ming tonna sholi, 20,9 ming tonna sabzovatchilik mahsulotlari, 3,6 tonna kartoshka, 31,9 ming tonna uzum sotiladi [8, Б. 249]. Kolxoz va sovxozlarning iqtisodiy quvvati oshib bordi. Jarqo‘rg‘on tumanidagi Norali Boymurodov jamoa xo‘jaligi 1966-yilda 194 tonna sabzavotchilik mahsulotlari, 115 tonna meva va uzum, 1967-yilda 497 tonna turli xildagi meva-sabzavot mahsulotlari topshiradi. 1960-yillarda dehqon yetishtirgan mahsulotga past nazar bilan qarash, uning mehnati natijalariga to‘g‘ri haq to‘lamaslik, dehqonning oilasi, uning kundalik ozuqa, kiyinish ehtiyojlarini o‘rganmaslik ayanchli iqtisodiy qiyinchiliklarni keltirib chiqargan edi. Xarid narxlarining mutanosibsizligi 1960-yillar va 1970-yillardagi agrar siyosatning jiddiy kamchiliklaridan biri bo‘ladi. 1966-1970-yillarda Surxondaryo viloyati qishloq xo‘jaligida katta muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritildi hamda 195 ming tonnadan ortiq g‘alla va sholi, 70 ming tonna sabzavot va kartoshka mahsulotlari, 120 ming tonnaga yaqin bog‘dorchilik mahsulotlari, meva va uzum, 62 ming tonna go‘sht, 125 ming tonna sut, 588 ming tonnaga yaqin qorako‘l teri, 66 ming sentner jun, 50 million dona tuxum, 3200 tonna pilla, 1725 ming tonna paxta yetishtirildi. Ingichka tolali paxtaning o‘rtacha hosildorligi 29,8 sentnerni tashkil etib, 107,4 ming tonna ingichka tolali paxta terib olinadi [9, Б. 251].

1977-yilda butun voha bo‘yicha sug‘oriladigan hududlardan 8,5 gektariga bug‘doy ekilgan bo‘lib, 9,7 sentnerdan hosil olinadi [10, Б. 60 ]. Tabiati o‘zgacharoq bo‘lgan yog‘ingarchilik g‘oyat kam bo‘ladigan vohaning lalmikor dehqonchilik qilinadigan adir va qirlarida g‘alla ekinlari hosildorligi shu ko‘rsatkich atrofida bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

Shuningdek, yangi o‘zlashtirilgan yerlarda tashkil etilgan xo‘jaliklar hisobiga belgilangan rejalar ortig‘i bilan bajarilishiga erishildi. Jumladan, yangi tashkil etilgan “Qumqo‘rg‘on” davlat xo‘jalik birlashmasi dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish va davlatga sotish yuzasidan o‘ninchi besh yillik rejalarini bajarishda erishgan muvaffaqiyatlari uchun xo‘jalikka 1981-yili SSSR Oliy kengashi hay’ati Farmoniga binoan Mehnat Qizil bayroq ordeni berildi. 1981-1985-yillarda davlatga rejadagi 37 ming o‘rniga 40,7 ming tonna paxta, shuningdek, 8662 tonna don, 1196 tonna sabzavot tayyorlanib, bu sohadagi rejalar ham ortig‘i bilan uddalandi. Chorvachilik va boshqa mahsulotlar yetishtirish bo‘yicha ham ancha yaxshi ko‘rsatkichlarga erishildi.

Go‘sht, jun, tuxum, sut va pilla tayyorlash rejalari ortig‘i bilan bajarildi [11]. Shuningdek, 1988-yilda Sho‘rchi tumanidagi “Jdanov” nomli kolxoz rejadagi 3 ming tonna paxta o‘rniga 5 ming 78 tonna, 751 tonna arpa, 3 ming 346 tonna makkajo‘xori doni, 370 sentner beda urug‘i, 8 ming 894 tonna lalmi

don yetishtirdi. Paxta esa 5 ming 600 tonna o'rniga 5 ming 700 tonna, 1 ming 150 tonna kartoshka o'rniga 1 ming 236 tonna, 1 ming 673 tonna poliz mahsulotlari o'rniga 2 ming 325 tonna yetishtirilib, reja 139 foizga bajarildi. Bundan tashqari, kolxoz bo'yicha paxtani mashinada terish rejadagi 26 ming 900 tonna o'rniga 28 ming 498 tonnaga bajarildi. Bu hosillarni yetishtirish uchun kolxozga ajratilgan 2 million 397 ming 428 so'm o'rniga 2 million 283 ming 186 so'm ishlatilib, 1 million 142 ming 242 so'm tejab qolingan [12].

**XULOSA.** Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash lozimki, tadqiq qilingan davrda Surxon vohasi sovet ittifoqi tassarufida edi, voha kolxoz va sovxozlarida yetishtirilgan barcha mahsulotlar, shu jumladan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ham markaz ko'rsatmasi asosida yetishtirilib, davlatga topshirilgan. Ushbu yillarda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning katta qismida paxta yetishtirilgan, yetishtirilgan mahsulotlarni davlatga topshirishda ham jonbozlik ko'rsatilib, bu borada ayrim sovxoz va kolxozlar hattoki respublikada yetakchilikka erishdi. Bularning barchasi mehnatkash voha aholisining peshona teri bilan amalga oshirildi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Турсунов С. ва б. Сурхондарё тарих кўзгусида. – Т.: Шарк, 2001. – Б -235.
2. Ленин байроғи,1967 йил 13 июль. № 137.
3. С.Турсунов ва Қ.Эшбоевлар. Шўрчи тарихидан лавҳалар. – Тошкент: 2014. – 137.
4. Ленин байроғи,1967 йил 17 июль. № 138.
5. Янгиобод газетаси – 1974 йил, 16 апрель. № 46.
6. Янгиобод газетаси – 1971 йил, 1 январь. № 1
7. Турсунов С, Қобилов Е ва бошқалар. Сурхондарё тарихи ўқув қўлланма. – Термиз, 2010. 112-варақ.
8. Турсунов С. ва б. Сурхондарё тарих кўзгусида. – Т.: Шарк, 2001. – Б -249.
9. Турсунов С. ва б. Сурхондарё тарих кўзгусида. – Т.: Шарк, 2001. – Б -251.
10. Рўзиев А.Н. Сурхондарё вилояти. – Т.: Жайхун, 1996. - Б. 60.
11. С.Н.Турсунов, Қ.П.Эшбоев, А. Тўхтаев. Қумқўрғон тарихидан лавҳалар. 2020
12. Сурхондарё вилояти давлат архиви. 580-фонд, 365-рўйхат, 1-сақлов бирлик, 56-варақ.